



УДК: 94(575.1)

Eshbolta QOBULOV,
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti professori, t.f.d
E-mail:eshbolta@mail.ru
Kamoliddin QOBULOV,
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti katta o'qituvchisi, PhD
TerDU professori, t.f.d S.Tursunov taqrizi asosida

THE SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF ARCHIVAL SOURCES IN STUDYING THE HISTORY OF SURKHAN VALLEY DURING THE MANGHIT ERA

Annotation

This article analyzes the political, economic, and administrative processes that took place in the Surkhan Valley during the Manghit period, particularly from the second half of the 18th century to the early 20th century, based on archival documents. Archival collections preserved in the Central State Archive of the Republic of Uzbekistan and other relevant repositories serve as key sources in examining the strategic importance of the region, the military-political activities of the Bukhara Emirate, the geopolitical interests of the Russian Empire during the age of Tsarism, and the territorial transformations that occurred in the valley. The article highlights the scientific and historical value of archival materials and sheds light on understudied aspects of the Manghit era.

Key words: Manghits, Surkhan Valley, Bukhara Emirate, Russian Empire, archival sources, political history, military-political relations.

НАУЧНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ АРХИВНЫХ ИСТОЧНИКОВ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ДОЛИНЫ В МАНГЫТСКИЙ ПЕРИОД

Аннотация

В данной статье на основе архивных документов анализируются политические, экономические и административные процессы, происходившие в Сурхандарьинской долине в мангытский период, особенно во второй половине XVIII-начале XX века. Документы, хранящиеся в Центральном государственном архиве Республики Узбекистан служат основным источником для раскрытия стратегического положения региона, военно-политической деятельности Бухарского эмирата, геополитических интересов Российской империи в период царизма, а также территориальных изменений, происходивших в долине. Статья освещает малоизученные страницы истории мангытского периода и подчеркивает научно-историческую ценность архивных материалов.

Ключевые слова: Мангыты, Сурхандарьинская долина, Бухарский эмират, Российская империя, архивные источники, политическая история, военно-политические отношения.

MANG'ITLAR DAVRI SURXON VOHASI TARIXINI O'RGANISHDA ARXIV MANBALARINING ILMIIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mang'itlar davrida, xususan XVIII asming ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Surxon vohasida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va ma'muriy jarayonlar arxiv hujjatlari asosida tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlar vohaning strategik mavqeini, Buxoro amirligining harbiy-siyosiy faoliyati, Rossiya imperiyasining chorizm davridagi geosiyosiy manfaatlari hamda vohada yuz bergan hududiy o'zgarishlarni yoritishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Maqola Mang'itlar davri tarixining kam o'rganilgan sahifalarini yoritib, arxiv materiallarining ilmiy-tarixiy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Mang'itlar, Surxon vohasi, Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, arxiv manbalari, siyosiy tarix, harbiy-siyosiy munosabatlar.

Kirish. Surxon vohasi Mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida Markaziy Osiyoning eng muhim strategik hududlaridan biri sifatida shakllangan. O'zining tabiiy-geografik joylashuvi, xususan Sharq va G'arbni bog'lovchi chorrahada turishi bois, voha barcha davrlarda siyosiy markazlar, davlatlararo manfaatlar va harbiy kuchlar to'qnashuvining markazida bo'lgan. Ayniqsa Balx-Buxoro va Buxoro-Hisor yo'nalishlaridagi doimiy harbiy-siyosiy ziddiyatlar Surxon vohasining ma'muriy tuzilishi, harbiy-siyosiy barqarorligi va demografik tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Manbalarda vohaning turli davrlarda "Sharqiy Buxoro"[7], "Markaziy Buxoro"[6], "Amudaryo Buxorosi"[6] kabi atamalar bilan yuritilishi ham aynan shu jarayonlarning o'zgaruvchanligini ko'rsatadi .

Mang'itlar davri tarixini ilmiy asosda yoritish uchun mavjud manbalarni arxiv materiallari bilan solishtirib o'rganish nihoyatda muhimdir. Chunki mazkur davr voqealari, amirlarning harbiy yurishlari, ma'muriy islohotlari, hududiy o'zgarishlar, Rossiya imperiyasi bilan diplomatik munosabatlar kabi jarayonlar bevosita arxiv hujjatlarida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining I-1, I-2, I-3, I-126, 1396 kabi jamg'armalarida saqlanayotgan materiallar Surxon vohasining siyosiy-iqtisodiy hayotini, amirlikning bu hudud ustidan nazorat o'rnatish yo'lidagi harbiy harakatlarini, shuningdek Rossiya imperiyasining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi geosiyosiy manfaatlarini yoritishda asosiy manba vazifasini bajaradi. Jumladan, Amir Nasrullo davrida vohada Boysun, Sherobod va Denov beklarining strategik mavqeyi, ularning amirlik

siyosatidagi ahamiyati haqida muhim ma'lumotlar mavjud. XIX asrning 70-yillarida Sharqiy Buxoroda 6 ming navkardan iborat doimiy qo'shin saqlangani haqidagi arxiv ma'lumotlari ham vohaning geosiyosiy vaziyatini tasdiqlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mang'itlar davri Surxon vohasi tarixini o'rganishda asosan arxiv hujjatlarini, rasmiy ma'muriy yozishmalar, rus tadqiqotchilarining harbiy-siyosiy sharhlari hamda mahalliy tarixnavislarning asarlari muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning asosiy tayanch manbalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fondlarida to'plangan bo'lib, ular orasida I-1 Turkiston general-gubernatorligi mahkamasi, I-2 Turkiston general-gubernatorligi diplomatik bo'limi, I-3 Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi, I-126 Buxoro amirligi qo'shbegisi, 1396 Rossiya Davlat Harbiy Tarix Arxivining "Turkiston harbiy okrugi shtabi" fondi kabi jamg'armalar alohida ajralib turadi. Bu hujjatlar Surxon vohasining ma'muriy tuzilmasi, beklar faoliyati, chegara masalalari, qo'shinlar joylashuvi, paxta yetishtirish siyosati, Rossiya imperiyasining harbiy strategiyasi va Buxoro amirligi ichki siyosati haqida juda boy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Masalan, I-2 jamg'armaning 251-ishida Amir Nasrulloxon hukmronligi davrida Buxoro amirligida 30 ta beklilik bo'lgani, Surxon vohasidagi Boysun, Sherobod va Denov bekliliklarining strategik mavqeyi hamda aholi migratsiyasi haqidagi ma'lumotlar aniq qayd etilgan; I-1 va I-3 jamg'armalarda esa Rossiya imperiyasining Karki va Termizni egallash jarayonlari, harbiy bo'linmalar joylashtirilishi va chor hukumati tomonidan amalga oshirilgan ma'muriy-harbiy o'zgarishlar keng yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mang'itlar davrida Surxon vohasida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va harbiy jarayonlarni tarixiy rekonstruksiya qilishda manbashunoslik, qiyosiy-tarixiy tahlil va tizimli yondashuv metodlari qo'llandi. Avvalo, mavjud yozma manbalar mazmuni tarixiy kontekstga joylashtirilib, mazmuniy yo'nalishi va siyosiy holatlar bilan bog'liqligi aniqlashtirildi. Shuningdek, turli davrlarga oid ma'lumotlar o'zaro solishtirilib, siyosiy voqealarning ketma-ketligi, harbiy-hududiy o'zgarishlar, bekliliklarning nufuzi, chegaraviy jarayonlar va mintaqaviy siyosatning dinamikasi mantiqiy rekonstruksiya qilindi.

Tahlil jarayonida vohaning ma'muriy tuzilishi, harbiy kuchlarning joylashuvi, ichki siyosiy kurashlar, Rossiya va Buxoro o'rtasidagi diplomatik munosabatlar, chegaraviy bitimlar, paxta yetishtirishning kengayishi, yangi infratuzilma — pochta yo'llari, harbiy inshootlar, temir yo'l tarmoqlari paydo bo'lishi kabi omillar o'zaro bog'liq holda o'rganildi. Har bir tarixiy ma'lumot alohida fakt sifatida emas, balki Surxon vohasining XVIII asr oxiri — XX asr boshlaridagi umumiy geosiyosiy transformatsiyasining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilindi.

Geosiyosiy yondashuv orqali vohaning Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi va Britaniya ta'siri oraliq idagi strategik o'rni aniqlashtirilib, harbiy-siyosiy kuchlar harakati, chegara masalalari hamda xalqaro bitimlarning hudud taraqqiyotiga ta'siri izchil tushuntirildi. Statistik ma'lumotlar asosida harbiy kuchlar soni, yerlarning qayta taqsimlanishi, infratuzilma o'zgarishlari va iqtisodiy jarayonlarning ichki dinamikasi qayta tiklandi. Tizimli tahlil yondashuvi esa barcha jarayonlarni — ma'muriy, harbiy, iqtisodiy, demografik va geosiyosiy o'zgarishlarni bir butun tarixiy model sifatida ko'rib chiqishga imkon berdi. Shu tariqa metodologiya Surxon vohasining Mang'itlar davridagi tarixiy manzarasini kompleks, ilmiy asoslangan va mantiqan uzviy tarzda talqin qilish imkonini yaratdi.

Natijalar va muhokama. Mang'itlar davrida Surxon vohasi tarixi bo'yicha arxiv manbalariga tayangan holda olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, voha XVIII asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida Buxoro amirligi, Rossiya

imperiyasi va bilvosita Britaniya manfaatlarini to'qnashgan geosiyosiy maydonga aylangan bo'lib, uning siyosiy-ma'muriy maqomi va nomlanishida sodir bo'lgan o'zgarishlar ham aks etadi. Ya'ni arxiv hujjatlarida Surxon vohasi "Sharqiy Buxoro", "Markaziy Buxoro" yoki "Amudaryo Buxorosi" nomlari bilan tilga olinishi beklilik va amlokliklar chegaralari siyosiy vaziyatga qarab qayta-qayta o'zgarib turganligi, bu esa vohani doimiy "qayta taqsimot zonasi"ga aylantirganligini ko'rsatadi.

Amir Muzaffarxon davrida, xususan Zirabuloq shartnomasidan so'ng, Sharqiy Buxoro, jumladan Surxon vohasida amirga muxolif kuchlar mavjudligi bois, hudud aholisi ustidan bosim yanada kuchayib, XIX asrning 70-yillarida Sharqiy Buxoro yerlarida doimiy harbiy kontingent saqlangan: Sherobodda 300 navkar, Boysunda 300 navkar, Denovda 500 navkar va 2 to'p, Sariosiyoda 500 kishilik navkar bo'lib, umumiy hisobda amir bu hududlarda 6 ming kishilik qo'shin saqlangani vohaning harbiy-strategik ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi[9].

Amir Muzaffar vafotidan (1885) keyin Abdulahadxonning taxtiga chiqishi (1885 yil 14 noyabr) va uning akasi Abdulmominni dastlab Hisordan Boysunga beklilik qilib ko'chirish, so'ng Buxoroga chaqirib uy qamog'ida ushlashi Boysunning nafaqat chegaraviy, balki ichki siyosiy kurashlar nuqtai nazaridan ham xavfli va muhim maydon sifatida qaralganini bildiradi[11].

1873 yil 19 yanvarda Amudaryoning Rossiya va Buxoro o'rtasidagi chegara sifatida belgilanishi, uzoq yillar Buxoroga vassallikda bo'lgan Badaxshon, Afg'on Turkistoni va Vahanning Afg'on davlatiga berilishi, 1887 yil iyul va 1895 yil martda tuzilgan keyingi shartnomalarda Panj daryosigacha bo'lgan hududlar taqsimoti aniq belgilanishi Surxon vohasining xalqaro bitimlar markazida turganini namoyon etadi.

O'z navbatida Afg'onistondagi notinch siyosiy vaziyat, ayniqsa 1887 yilda ko'tarilgan yirik qo'zg'olon va Surxon vohasi hududlarida inglizlar tomonidan yollangan afg'on josuslarining ma'lumot yig'ish borasidagi harakatlari[15], Rossiya imperiyasining Sharqiy Buxoro hududlariga xususan Kerki va Termizni egallash ishlarini tezlashtirdi. Ayniqsa, Termiz shahrini egallashga alohida e'tibor qaratildi. 1868 yilgi Zirabuloq shartnomasiga ko'ra ancha huquqlardan mahrum bo'lgan, Buxoro amirligi 1873 yilgi shartnomasiga ko'ra bir qator huquqlarga ega bo'ldi. Bitimga muvofiq Buxoro amirligi ichki ishlariga ruslar aralashmaydigan bo'ldi, bu qandaydir ijobiy holat deb, qaralsa-da aslida rus hukumati manfaatini birinchi o'ringa qo'yilganligi, amirning olib borayotgan siyosati to'liq nazorat qilinishi arxiv hujjatlarini o'z aksini topgan[10, 18].

Rossiya imperiyasining Buxoro-Afg'on chegarasida vaziyatni o'z qo'lga olish borasidagi tadbirlarini ham arxiv hujjatlarida qayd etilgan ma'lumotlar orqali bilib olish mumkin. Unda quyidagi ma'lumotlarni o'qish mumkin: "Buxoro — Afg'on chegaralari ochiq bo'lib, savdo-bojxona shartnomalari tuzilmagan edi. 1894 yilda amirlikning chegara punktlarida rus bojxonalarini tashkil qilishga qaror qilindi. Buxoro amirligini rus bojxona tizimiga kiritish to'g'risidagi qonun 1894 yil 6 iyulda qabul qilinib, rasman ushbu yilning 15 noyabrdan kuchga kirdi"[3].

1894 yili tuzilgan Rossiya — Buxoro kelishuv shartnomasiga muvofiq, chegara hududlarini kechib o'tadigan qirg'oqlarda Kerki, Kelif, Cho'chqaguzar, Pattakesar, Ayyanch, Saroy, Chubak va Bogarakda bojxona maskanlari qurildi. Xuddi shu yili Pattakesar qishlog'iga 31-Amudaryo brigadasining dastlabki qismlari keldi. Amudaryo brigadasining komandiri, polkovnik Kostevich Termiz shahrining strategik o'rniga ahamiyat bergan birinchi chor komandiri sanaladi[5]. 1897 yil Termizga 4-Orenburg kazak polki joylashtirildi. Ularga kazarma qurish uchun mablag'

ajratildi va 40 desyatina yer sotib olindi. Qisqa vaqt ichida Petro-Aleksandrovskdan 13-Turkiston o'qchi bataloni va 2-Orenburg kazak otryadi Samarqanddan Termizga olib kelindi[14].

Rossiyaning Sharqiy Buxoro yerlaridagi faol harakati Angliyani nihoyatda tashvishlantirib, Rossiyaga qarshi yashirin yo'llar orqali Afg'oniston va Buxoro amirligini qarshi qo'yishga urinib, bir necha marta turli xil fitnalar uyushtirishga harakat qildilar. Bu holat Rossiyaning Amudaryo qirg'oqlari hududlarida ehtiyotkorona siyosat yuritishga majbur etdi va tez vaqt ichida mustahkam harbiy qal'a qurish zaruratini keltirib chiqardi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun chor hukumati mahalliy aholidan 474, 5 tanob ya'ni 123, 5 desyatina yerni 52500 tangaga sotib oladi[13]. Sotib olingan yerda harbiylar uchun kazarmalar, shtab, zobitlar uchun uylar qurila boshlandi. Qurilish ishlarida voha beklilari dehqonlari qishloq xo'jaligi ishlarini to'xtatganlari holda, kuniga 2 tanga ish haqi hisobiga ishtirok etdilar[12]. Chor hukumati Termizga harbiy qal'a sifatidagina e'tibor berib qolmasdan, balki Rossiyaning markaziy rayonlaridan aholini ko'chirib keltirish [2], shuningdek kelajakda Hindiston yo'nalishida harbiy tayanch markaz sifatida ham qaradi[14]. Shu sababli, 1897 yilda Termizda uzunligi 10 km, qalinligi 1, 5 metr va balandligi 7 metr bo'lgan harbiy qal'a va umumiy maydoni 6 gektardan iborat Amudaryo harbiy brigadasi uchun Tuproqo'rg'on barpo qilindi[16].

Rossiya imperiyasi hukumati oldidagi galdagi vazifa qishloq xo'jaligini tezlikda rivojlantirish. Eng avvalo rus hukumati hududga paxta yetishtirib beradigan hudud sifatida e'tibor qaratdi. Surxon vohasi iqlim sharoiti bo'yicha O'rta Osiyoning qadimdan paxta yetishtiriladigan asosiy maydoni sanalgan va bu yerda g'o'zaning "oq g'o'za", "qora po'choq", "movri g'o'za", ko'k, malla va qora chigitli navlari ekilgan[1]. Aynan Rossiya imperiyasi davrida vohada paxta monokulturasini shakllanganligini arxiv hujjatlari to'liq isbot etadi[13].

Rossiya imperiyasi hukmdon doiralari Surxon vohasi orqali o'tadigan suv yo'llari hamda temir yo'l tizimiga katta e'tibor bilan qaragan holda, Samarqand-Termiz pochta yo'lini

1902 yilda[6], Termiz-Kogon temir yo'li qurishini esa 1916 yilda yakunladi[6]. Shuningdek, Amudaryo kechuvlaridagi barcha savdo-sotiq jarayonlari Rossiya nazoratiga olindi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz munkinki, Mang'itlar davrida Surxon vohasi Sharqiy Buxoro hududining eng muhim siyosiy, strategik va geosiyosiy markazlaridan biri bo'lib, XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida vohada yuz bergan jarayonlar umumiy mintaqaviy tarixning ajralmas qismi sifatida shakllangan. Tadqiqot davomida vohaning ma'muriy tuzilishi, beklilarning nufuzi, ichki siyosiy kurashlar, amirlikning harbiy-siyosiy siyosati, Rossiya imperiyasining bosqichma-bosqich kengayishi, xalqaro bitimlarning natijalari, harbiy garnizonlarning joylashtirilishi va iqtisodiy infratuzilmadagi o'zgarishlar uzviy bog'langan murakkab jarayonlar majmui ekanligi aniqlandi.

Rossiya imperiyasining janubiy siyosati, ingliz ta'siri bilan kuchaygan "Buyuk o'yin" va Afg'onistonning notinchligi Surxon vohasining strategik qiymatini yanada oshirib, Termizning harbiy tayanch punktiga aylanishi, kazak qo'shinlarining joylashtirilishi, harbiy qal'alar qurilishi va infratuzilmaning kengayishi vohani imperiya siyosati markaziga aylantirgan. Temir yo'l, pochta yo'llari, bojxona maskanlarining tashkil etilishi, paxta monokulturasining kengayishi va yerlarning qayta taqsimlanishi esa vohaning iqtisodiy manzarasini tubdan o'zgartirdi. Bu o'zgarishlar nafaqat harbiy-strategik ehtiyojlarga javob bergan, balki Surxon vohasini Rossiya imperiyasining iqtisodiy tizimiga uzviy qo'shilishiga olib kelgan.

Surxon vohasi tarixining ushbu davri faqat siyosiy voqealar majmui emas, balki mintaqaning ijtimoiy-demografik tarkibi, iqtisodiy yo'nalishi va geosiyosiy o'rniga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Vohaning tarixiy taraqqiyoti mahalliy beklilarning siyosati, amirlikning markazlashuviga intilishi, xalqaro raqobat, chegara siyosati va Rossiya imperiyasi manfaatlarining kesishgan nuqtasida shakllangan. Shu bois, Mang'itlar davridagi Surxon vohasining o'rganilishi nafaqat hududiy tarixni tiklash, balki butun Markaziy Osiyo geosiyosatini chuqurroq anglashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. O'z MA, 96-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish.
2. O'z MA, 1396-jamg'arma, 2-ro'yxat, 1490-ish.
3. O'z MA, I-1-jamg'arma, 11-ro'yxat, 1319-ish.
4. O'z MA, I-1-jamg'arma, 34-ro'yxat, 639-ish.
5. O'z MA, I-1-jamg'arma, 34-ro'yxat, 841-ish.
6. O'z MA, I-2-jamg'arma, 1-ro'yxat, 251-ish.
7. O'z MA, I-2-jamg'arma, 1-ro'yxat, 330-ish.
8. O'z MA, I-2-jamg'arma, 1-yozuv, 351-ish.
9. O'z MA, I-2-jamg'arma, 27-ro'yxat, 3-ish.
10. O'z MA, I-2-jamg'arma, 2-ro'yxat, 251-ish.
11. O'z MA, I-3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 74-ish.
12. O'z MA, I-3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 133-ish.
13. O'z MA, I-3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 140-ish.
14. O'z MA, I-3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 296-ish.
15. O'z MA, I-126-jamg'arma, 2-ro'yxat, 180-ish.
16. O'z MA, I-126-jamg'arma, 2-ro'yxat, 1402-ish.